



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOGNITIV-METODOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Raxmatjonov Shohjaxon Dilshodbek o‘g‘li**  
Farg‘ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy jihatlari, ushbu kompetentlikni shakllantirish metodikasi hamda uning samaradorligi tadqiq etilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv-metodologik kompetentlik, integrativ yondashuv, pedagogik texnologiya, metod, vosita, baholash, refleksiv-texnologik asos, pedagogik-psixologik xususiyatlar.

## МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КOGNИТИВНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Рахматжонов Шохжахон Дилшодбек угли**  
Ферганский государственный университет, независимый исследователь

### **Аннотация**

В статье исследуются теоретические аспекты развития когнитивно-методологической компетентности будущих учителей, методика её формирования, а также её эффективность. Кроме того, анализируются методические подходы к развитию когнитивно-методологической компетентности будущих педагогов.

**Ключевые слова:** когнитивно-методологическая компетентность, интегративный подход, педагогическая технология, метод, средство, оценивание, рефлексивно-технологическая основа, педагогико-психологические особенности.

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING COGNITIVE-METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

**Rakhmatjonov Shohjakhon Dilshodbek ogli**  
Fergana State University, Independent Researcher

### **Abstract**

This article explores the theoretical aspects of developing cognitive-methodological competence in future teachers, the methodology for its formation, and its effectiveness. It also analyzes methodological approaches to the development of cognitive-methodological competence among prospective teachers.

**Keywords:** cognitive-methodological competence, integrative approach, pedagogical technology, method, tool, assessment, reflexive-technological basis, pedagogical-psychological features.

Hozirgi vaqtda bilish faolligi muammosini falsafa (gnoseologiya), psixologiya (kognitiv psixologiya), mantiq, semiotika va boshqa fanlar o‘rganadi. Zamonaviy tadqiqotlarda bilish faoliyati amaliy ehtiyojlar bilan, bilish jarayonlarini boshqarish, bilishga doir ko‘nikmalar yordamida o‘qitish jarayonini qulaylashtirish, axborot texnologiyalaridan jadal foydalanish bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. “Ilmiy-texnik taraqqiyot sur‘ati bilish faoliyati subyektiga jiddiy

talablarni qoʻyadi. Chunki bilish jarayoni insonsiz boʻlishi mumkin emas. Bilish inson qobiliyati, izlanuvchanligi, mantiqiy kamolot darajasi hamda uning tafakkur organi — miyasiga bogʻliq”. Taʼlim jarayonining nazariy asoslari muntazam rivojlanayotgan hozirgi sharoitda oʻqituvchilardan yuzaga kelayotgan yangi muammolarni yecha olish salohiyati talab etiladi. Buning uchun oʻqituvchilarda yuqori darajadagi kasbiy barqarorlik tarkib topgan boʻlishi lozim. Yangi vazifalar va taʼlimning rivojlanish tendensiyalari boʻlajak oʻqituvchilarning ham shaxsiyati va kasbiy faoliyatiga nisbatan alohida talablar qoʻyishni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan boʻlajak oʻqituvchilardan oʻz kasbiy mahoratlarini muntazam oshirib borish talab etilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

Boʻlajak oʻqituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy jihatlarini, uni rivojlantirish metodikasi va samaradorligi T. Byuzen, N. German, M. Bernis, M. Pietra, E. Terxart, R. Dyunn, M. Axmetov, A. Bazayeva, L. Bocharova, E. Vyazovova, T. Dobridina, I. Dulchayeva, E. Zeyer, T. Korotenko, L. Osipova, A. Piligin, V. Pustovoytov, S. Roslyakova, U. Inoyatov, N. Muslimov, O. Musurmonova, B. Xodjayev, M. Vahobov, M. Mirsoliyeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

Pedagogika oliy taʼlim muassasasi talabalarining ijtimoiy moslashuvi — bu talabalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlari, xilma-xil oʻquv, mehnat hamda ishlab chiqarishga doir ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatni amalga oshirishlari orqali ularning ijtimoiy tajribani oʻzlashtirishiga qaratilgan tashkiliy-pedagogik jarayondir. Bu, shuningdek, shaxsning oliy taʼlim muassasasi oʻquv jarayoniga koʻnikishi, meʼyor, qadriyat va pedagogik kasbining oʻziga xosliklarini faol oʻzlashtirishi, oʻziga yangi ijtimoiy maqomni qabul qilishi, shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga uygʻun ravishda kirisha olishini taʼminlovchi boʻlajak kasbiy faoliyatga doir koʻnikma va malakalarni egallash jarayonidir. Natija sifatida esa talabalarning oliy taʼlim muassasasidagi muhitga mos xulq-atvor strategiyasi va modeli yuzaga chiqadi. Bu tizimli hamda shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida talabalarning oʻquv, tarbiyaviy, jismoniy-sportga doir faoliyatlarini qamrab oluvchi yaxlit jarayon boʻlib, yangi faoliyat va muloqot sharoitlari, shaxsning oliy taʼlim muassasasidagi muhit bilan integratsiyasi, uning qadriyatlari, xulq-atvor meʼyorlarini qabul qilishi, shaxslararo muloqot koʻnikmalari va kasbiy malakalarni shakllantirish jarayonini anglatadi.

Tahlillar natijasiga koʻra, oliy taʼlim muassasasida taʼlim olishning oʻziga xosliklari quyidagilarda yorqin namoyon boʻladi:

1. **pedagogik-psixologik oʻziga xosliklar** — oliy taʼlim mazmuni, oliy taʼlimda taʼlimni tashkil etish shart-sharoitlari;
2. **ijtimoiy-psixologik oʻziga xosliklar** — ijtimoiy munosabatlarning yangi turini oʻzlashtirish zaruriyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi subyektiv omillar (irodaviy xususiyatlari rivojining pastligi, tanlagan kasbini egallashga ishtiyoqning sustligi, oʻz kuchiga ishonchning yoʻqligi, oliy taʼlimda muvaffaqiyatli oʻqishni davom ettirishga shubha bilan qarash).

Oʻquv jarayonida birinchi kurs talabalarini duch keladigan asosiy qiyinchiliklarning sabablarini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, talabalar mazkur jarayonda ham subyektiv, yaʼni koʻpincha talabalarning oʻzlariga bogʻliq boʻlgan, ham obyektiv, yaʼni tashqi shart-sharoitlar bilan bogʻliq, shuningdek, oliy taʼlim muassasasidagi taʼlim mazmuni va oʻquv ishlarini tashkil etish bilan bogʻliq majmuaviy muammolarga duch keladilar. Obyektiv omillarga birinchi kurs talabalarini quyidagilarni kiritganlar: hafta davomidagi oʻquv yuklamasining teng taqsimlanmaganligi (30% talabalar mazkur sabab taʼlim jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini koʻrsatib oʻtgan), turli professor-oʻqituvchilarning talablari va baholash mezonlarining xilma-xilligi (17% respondentlar mazkur omilni alohida koʻrsatib oʻtgan), oʻquv adabiyotlarining yetarli emasligi (10% birinchi kurs talabalarini mazkur omil muvaffaqiyatli taʼlim olish uchun qiyinchilik tugʻdirishini aytib oʻtgan). Shuningdek, obyektiv guruh omillariga talabalar seminar va amaliy

mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda topshiriqlar hajmining ko'pligi (19% talabalar) va professor-o'qituvchilarning tushunarsiz ilmiy tildagi ma'ruzalarini o'zlashtirishdagi murakkablikni (10% birinchi kurs talabalar) ham kiritish mumkin.

Talabalarining ijtimoiy moslashuvi omillarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, birinchi kurs talabalarining 25 foizi uchun muvaffaqiyatli o'qishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan subyektiv omil — bu o'z faoliyatini oqilona tashkil eta olmaslikdir. Respondentlarning 15 foizi oliy ta'lim muassasasidagi qiyinchilikning yana bir muhim sababi sifatida seminar mashg'ulotlarida ma'ruza bilan ishtirok eta olmaslikni ko'rsatib o'tgan. Chunki ular mazkur jarayonda o'z fikrlarini aniq va tushunarli bayon eta olmaslik, o'z nuqtayi nazarida tura olmaslik kabi qiyinchiliklarga duch keladilar. Mazkur holat professor-o'qituvchilardan birinchi kurs talabalar bilan seminar o'tkazishning samarali bo'lishi uchun ularni seminarga tayyorgarlik ko'rish va seminarda ishtirok etishga o'rgatib borishni talab etadi. Shuningdek, ko'pchilik talabalar oliy ta'limda o'qish tajribasiga ega bo'lmasa ham, oliy ta'limdagi o'qish jarayoniga moslashuv omili sifatida mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega emaslikni juda kam talabalar, ya'ni 7 foiz talabalar qayd etgan, xolos. Talabalar ma'ruzani konspekt qilib borish ko'nikmasiga ham tanqidiy yondashmaganlar, boryo'g'i 3 foiz talaba ma'ruza mashg'ulotlarida ma'lumotlarni qayd etib borish murakkab ekanligini ta'kidlagan.

Birinchi kurs talabalarining o'quv faoliyati motivlarini o'rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, ayrim yo'nalishlar, masalan, pedagogika va psixologiya talabalarini shakllantirgan motivlar oliy ta'limdagi o'qishning so'nggi natijasi, ya'ni "yuksak malakali mutaxassis bo'lish", "bo'lajak kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash", "diplom olish" ko'rinishiga ega bo'lsa, ba'zi yo'nalishlar, xususan, tabiiy fanlar talabalarini shakllantirgan o'quv motivlari ta'limning tashkiliy jihatlariga, ya'ni "muvaffaqiyatli o'qish", "navbatdagi mashg'ulotga tayyor bo'lish", "professor-o'qituvchilarning talabalarini bajarish", "yaxshi stipendiya olish"ga yo'nalganligi bilan ajralib turadi. Barcha birinchi kurs talabalar uchun o'rtacha ahamiyatlilikka ega umumiy motiv — bu professor-o'qituvchilar tomonidan hurmatga erishish ustanovkasidir. Pedagoglar me'yor, qadriyat va madaniyatni uzatuvchi hamda muhim ijtimoiylashuv agentlari sifatida talabalarining ijtimoiy moslashuvida muhim rol o'ynaydilar.

Birinchi kurs talabalarining guruh ichidagi shaxslararo munosabatlari tavsifi ularning ijtimoiy moslashuvida muhim bosqich hisoblanadi. Birinchi kurs talabalarining 80 foizi guruhdagi talabalar bilan o'z munosabatlarini do'stona deb baholaydi, guruh ichidagi konfliktli munosabatlar borligini esa faqat 3 foiz respondent alohida ajratib ko'rsatadi. Shunday qilib, talabalarining ijtimoiylashuvi bilan bog'liq bir nechta omillarni o'rganish natijalaridan ma'lum bo'ladiki, birinchi kurs talabalarining ijtimoiy moslashuvi qandaydir bitta omil ta'sirida amalga oshmaydi. Mazkur jarayonda bir yoki bir necha yo'nalishdagi harakatni yuzaga keltiruvchi qator omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning va oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijtimoiy moslashuvidagi sifat hamda miqdor farqlari aynan bevosita yoki bilvosita talabalarining olam haqidagi subyektiv qarashlari, ko'plab harakat va xulq-atvor me'yorlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi moslashuv omillariga bog'liqdir.

Oliy ta'lim talabalarini o'quv faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash hamda talabalarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan holda mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish ilmiy fikrlashni, o'quv faniga qiziqishni kuchaytirish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar mobaynida ularning faolligini oshiradi.

Talaba mustaqil faoliyatining samarali bo'lishi uchun pedagogdan turli xildagi maslahatlar tizimi talab qilinadi. Shu sababli xorij tajribasida pedagogik yordamning turli ko'rinishlari takomillashib bordi va bugungi kunda pedagogik faoliyatga ko'ra bir qancha tushunchalarning keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, fasilitatsion yondashuv masalasi pedagogika va psixologiyada tobora qiziqarli xarakter kasb etib bormoqda.

## **XULOSA.**

Fasilitatsiya ta'limning andragogik modelida pedagog pozitsiyasining o'zgarishini talab qiladi. Bunga pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitish jarayonlarini ham kiritish mumkin. Operatsion-harakat bosqichi orqali harakat qilinsa, o'qituvchi ratsionallikka asoslangan holda fasilitatsiyani amalga oshiradi, ya'ni talabalarni aniq faoliyatga yo'naltiradi, yordam beradi va boshqaradi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi yangi pedagogik texnologiyalarni izlab topadi. Aks holda, interfaol ta'lim sharoitida pedagog ingibitor roliga kirishib, ta'lim oluvchilarning faolligini pasaytiradi yoki to'xtatib turadi. Ingibitor lotin tilidagi *inhibere, inhibitium* so'zlaridan olingan bo'lib, "ushlab turmoq", "to'xtatmoq" ma'nolarini anglatadi. Ingibitsiyani psixologik nuqtayi nazardan ko'rib chiqilganda, uni jarayon va ezilishning natijasi sifatida yoki qandaydir reaksiyalar, jarayonlar, faoliyat va faollikning pasayishi, hatto to'xtashi deb izohlash mumkin.

Shunday qilib, axborotlarga boy ta'lim muhitida asosiy figura ta'lim oluvchi bo'lib, u o'zining shaxsiy faoliyatida "o'z-o'zini tashkillashtiruvchi subyekt" sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi esa ta'lim muhitining imkoniyatlaridan foydalanib, uni keyingi rivojlanish maqsadini ko'zlagan holda faoliyatga yo'naltiradi. Shu tarzda fasilitatsiya ta'limning andragogik modelida pedagog faoliyatining maxsus ko'rinishi hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Гапонова С. А. Особенности адаптации студентов вузов в процессе обучения // Психологический журнал. — 1994. — Т. 15, № 3. — С. 131–135.
2. Муслимов Н. А. ва б. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. — Т.: Фан ва технология, 2013.
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 2013.
4. Суннатова Р. И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности: автореф. дис. ... д-ра психол. наук. — Тошкент: ЎзМУ, 2001.
5. Сычев А. В. Социально-педагогическая адаптация первокурсников к обучению в вузе (на примере факультета физической культуры и спорта): автореф. дис. ... канд. пед. наук. — Тамбов, 2004. — 6 с.
6. Шепилова Н. А. Социально-педагогическая адаптация студентов вуза в процессе формирования их ценностного отношения к педагогической профессии: автореф. дис. ... канд. пед. наук. — Магнитогорск, 2003..